

JADIDLAR VA MUSULMON MAKTABLARINING  
ISLOH QILISH HARAKATLARI

*Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna*

*O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika*

*instituti o'qituvchisi n\_mirzoyeva@gmail.ru*

*Murtazayeva Basida Saidmurod qizi*

*O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika*

*Instituti talabasi m\_murtazayevab@gmail.ru*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada jadid ajdodlarimizning ta'lif-tarbiya sohasida qo'shgan hissalari, islohotlari, yaratgan darsliklari, o'quvchilarni bilim va ma'nnaviyatini oshirish uchun tanlangan ta'lif sistema, avvalgi o'qitish tizimidan "Yangi usul" maktablarining ustun taraflari, diniy va dunyoviy fanlarni sinflar kesimida o'qitilishi, ushbu fanlarni birgalikda o'qitilganda erishilgan yutuqlari haqida qisqacha keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar.** Jadid, yangi usul, usuli savtiya, madrasa, musulmon maktablari, darslik, Behbudiy, Marjoni, domla Fozil G'ijduvoniy, Mo'minjon Vobkandi, Xudoyberdi Boysuniy, ta'lif, dinniy islohotchilik, tarbiya, taraqqiyot.

**«РЕФОРМАТОРСКИЕ ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДОВ  
И МУСУЛЬМАНСКИХ ШКОЛ»**

**Аннотация.** В данной статье кратко изложен вклад наших предков джадидов в области образования, реформы, созданные учебники, система образования, выбранная для повышения знаний и духовности учащихся, преимущества школ "Нового метода" по сравнению с предыдущей системой обучения, преподавание религиозных и светских предметов на стыке классов, успехи, достигнутые при совместном преподавании этих предметов.

**Ключевые слова.** Джадид, новый метод, метод савтия, медресе, мусульманские школы, учебник, Бехбудий, Марджаний, домла Фазиль Гиждуваний, Муминджан Вобкандин, Худойберди Байсуний, образование, религиозная реформа, воспитание, прогресс.

**"REFORM MOVEMENTS OF JADIDS AND MUSLIM SCHOOLS"**

**Annotation.** This article briefly discusses the contributions of our modern ancestors in the field of education, the reforms they have made, the textbooks they have created, the educational system chosen to enhance students' knowledge and spirituality, the advantages of the "New Method" schools over the previous teaching system, the

teaching of religious and secular subjects in classroom sections, and the achievements obtained when teaching these subjects together.

**Keywords.** Modern, new method, usuli savtiya, madrasa, Muslim schools, textbook, Behbudiy, Marjoni, domla Fozil G'ijduvoniy, Mo'minjon Vobkandiy, Xudoyberdi Boysuniy, education, religious reform, upbringing, progress.

Ta'lism-tarbiya har bir davru zamonda dolzarb masala bo'lib kelgan. Ta'lism sohasida e'tibor, ta'lism jarayonini isloh qilish, rivojlantirish ham muhim hisoblangan. Ta'lism sohasi boshqa sohalar singari har doim ham islohotlarni talab qiladi. Boshqa sohalarning rivojlanishi esa baribir borib ta'lism-tarbiya, bilimga borib taqaladi. Azaldan Sharq mamlakatlarida ta'lism maskanlari sifatida madrasalar faoliyat olib borgani barchamizga ma'lum. Muayyan bir davrlarda ushbu madrasalarda ko'pincha diniy bilimlarga e'tibor qaratilgan bo'lsada, yana bir ma'lum davrda dunyaviy bilimlar ham diniy bilimlar kabi bирgalikda teng o'rgatilib borilgan. Ammo yuqorida ta'kidlaganimizdek ta'lism sistemasi har doim islohot va rivojlanish talab qilgani bois zamona bilan hamnafas bo'lishlik taqozo qilinadi. Ya'ni jamiyatning talabidan kelib chiqqan holda zamonaviy bilimlarni o'rgatib borishlik ta'limgagi asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Turkiston jadidchilik harakati namoyandalari tomonidan XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkistonning ta'lism sistemasida asta-sekinlik bilan o'zgarishlar kiritiladi. Aynan XIX asr boshlarida Buxoro ma'rifatparvar musulmon ruhoni ziyolilari o'rtasida madrasa va maktablar tizimiga va islom diniga kirib qolgan bid'atlarni isloh qilish fikri paydo bo'ladi. Ana shu islohotlar tarafdarlarini jadidlar, yangilik tarafdarlari deb atay boshladilar. O'sha davrdan boshlab bunga qarama-qarshi turgan oqim fanatizm ruhidagi kishilarni qadimiylar deya boshladilar.

XIX asr boshida Abu Nasr Kursaviy boshchiligidagi ilg'or ma'qifaparvar mudarrislar Buxorodagi 200 dan ortiq madrasalarni isloh qilish g'oyasiniko'tarib chiqdilar. Qadimiylar ularni kofirlar, xudosizlar deb aybladilar. Jadidlarning asosiy maqsadi aholini, qolaversa yos avlodga zamonaviy bilimlar berishlik va zamona ilmlaridan xabarsiz qolmasdan rivojlanishga intilish edi. Ta'lismni isloh etishni yangi maktablar ochish bilan boshlagan jadidlar endilikda ushbu "usuli jadid" nom olgan ta'lism maskanlarida darsliklarni ham yarata boshladilar. Shu o'rinda ta'kidlash joizki birinchi jadid maktabi Ismoil G'aspirali tomonidan 1884-yilda Qrimdag'i Boqchasaroyda ochilgan.

XIX asrning 50-60-yillarida dinniy islohotchilik harakati kengaya boshladi. Bu harakat boshida mudarris va tarixchi Marjoni, domla Fozil G'ijduvoniy, Mo'minjon Vobkandiy, Xudoyberdi Boysuniy kabi jadidlar namoyandalari turdilar. Bular madrasa va maktablar ta'lism dasturlarini tubdan isloh qilish g'oyasini ko'tarib o'zlari

yangi talablar asosida dasturlarni taqdim etdilar. Jumladan Rahimjon Marjoniy o’zi taqdim etilgan dasturda quyidagi olti talabni kiritgan edi:

1. Qur’ondgi har qanday diniy masa yuzasidan kishilar bilgan hold o’zlari erkin fikr yuritsinlar;
2. Kishilarni bir-biriga ko’r-ko’rona ergashishi ma’n qilinsin;
3. Madrasalarda o’qitiladigan heshiya va irq kabi fovidasiz darslar olib
4. Madrasalarda Qur’oni Karim, Hadisi Sharif, ularning tarjimalari, Islom tarixi kabi darslar o’tilsin
5. Arifinetika, tarix, jug’rofiya, tabobat, handasa, mantiq, falsala va boshqa dunyoviy fanlarni o’qitishga qarshilik ko’rsatilmasin.
6. Har bir ishda musulmonchilikni Muhammad alayhisalom davridagi qadimiy islont madaniyatiga qaytarish ko’zda tutilsin.

Jadidlar Rossiya Imperiyasi mustamlakasi bo‘lgan xalqlami, eng avvalo, maorif tizimini yaxshilash, ta’lim sohasini isloh qilish, yoshlarga diniy bilimlar bilan birga dunyoviy fanlami ham o’qitish zarur deb bildilar. Ular musulmon xalqlarining maktab va madrasalarida yoshlarga diniy ta’lim, arab, fors va rus tillari, tibbiyot, kimyo kabi fanlar o’qitilishi zarurligi g’oyasini ilgari surdilar.[1] Turkistonning turli hududlarida “usuli jadid” maktablarining safi oshib borardi. Yangi usul maktablaridagi qoidalar, islohotlarning ko’rinishi sifatida quyidagidek qoidalari va talablari mavjud edi:

1. Sinfda bolalar soni 30 tadan oshmasligi;
2. Bolalar yoz va qish boshlaridagina maktabga o’quv yilini boshlashi;
3. Har qabul nechta bo’lishidan qat’iy nazar bir sintdan oshmasligi.
4. Har bir muallimda 3-4 sinf bo’lishi

5.7-9 yoshli bolalar uchun dars soatlari 5 soatdan oshmasligi, har darsdan so’ng 10 daqiqa tanaffus bo’lishi;

6. Juma va bayram kunlari dam olish kuni deb hisoblanishi;
7. O’n oy o’qishdan so’ng katta ta’til bo’lishi;
8. Dars zerikarli bo’lmasligi;
9. Bolalarni urish va sokish mumkin emasligi;

“Usuli jadid” maktablardagi o’qitish usullari:

1. Butun alifboni birdan o’rgatish og’ir, boshida uch, besh harf o’rgatib borish yengil;
2. Birinchi darsdan shogirdlarni yozishni boshlamasliklari kerak;
3. Darslar soatlarga, qismlarga ajratib o’rgatilishi;
4. O’quvchi bir darsni o’zlashtirmaguncha ikkinchisiga o’tilmasligi kerak;
5. Harflar bilan tanishtirganda ular haqida kengroq ma’lumot berilishi kerak;
6. O’quvchilarni har 6 oyda imtihon qilish, yil oxirida sinfdan sinfga o’tkazish, o’zlashtirmaganlarni sinfda qoldirish;

Sharq xalqlarining ma'naviy hayotida, maktab maorifida chinakam to'ntarish yasagan, turkiy qavmlarning chinakam iftixori bo'lgan Ismoilbek G'aspirali tomonidan ishlab chiqarilgan «Usuli jadid» nomi tarixda katta o'rin tutgan singari, Mahmudxo'ja Belilyadiyning nomi ham Turkiston maktab-maorifida keng o'rin egallaydi. U birinchi bo'lib o'lkada yangicha usuldag'i maktablami tashkil etish targ'ibotchisi hamda amaliyotchilaridan hisoblanadi. Malimudxo'ja Behbudiy «Usuli jadid maktabining zarurligi, uning qonun qoidalari, maktabda o'tiladigan darslar, qanday imtihonlar olinishi, maktabning qay tarzda tuzilish, unga qanday asbob-uskunalar kerakligi, muallimning vazifalari, ularning ta'minot masalalari va boshqa ko'p jihatlarini o'rganib chiqib amalda qo'lladi. Samarqand yaqinidagi Halvoyi qishlog`ida Ajziy, Rajabaminda Abdulqodir Shakuriylar bilan hamkorlikda yangi maktab ochib bu bilim dargohlari uchun yangi darsliklar “Risolayi asbobi savod” (“Savod chiqarish kitobi” 1904), “Risolayi jug`rofiyai umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”, 1905), “Muntahabi jug`rofiyayi umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”, 1906), “Kitobat ul-atfol” (“Bolalar xati”, 1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) kabi kitoblar nashr ettirgan. Keyinchalik o'z hovlisini ham ma'lum vaqt maktab sifatida foydalangan. Shunday qilib Turkiston zo'lkasida pedagogik fikrlarning rivojlanishida, xalq maorifi ishlarini yuksaltirishda ilg'or ziyolilarning xizmatlari kattadir. Bunda yana bir jadid namoyandalarining yirik vakili shoир, dramaturg, pedagog Abdulla Avloniy (1878-1934)ning xizmatlari ham beqiyosdir. U maktablar ochib, shaxsan o'zi muallimlik qilish bilan birga maktablarni darsliklar bilan ta'minlash ishiga katta hissa qo'shdi. Uning qalamiga mansub «Turkiy Guliston yoxud axloq», «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» «Maktab Gulistoni » asarlari bir necha bor nashr etildi. Bular ichida «Turkiy Guliston yoxud axloq» asari o'zbek klassik pedagogikasining ajoyib namunasi hisoblanadi.[2]

Markaziy Osiyo hududida ta'lim muassasalari: quyi boshlang'ich maktab, qorixona, daloilxona, madrasa kabi bosqichlardan iborat bo'lgan. Maktablar boshlang'ich ta'lim muassasasi hisoblanib, unda bolalarga yozish va o'qish o'rgatilgan, din haqida dastlabki ma'lumotlar berilgan. Madrasalar yuqori turuvchi o'quv muassasasi hisoblangan, qorixona va daloilxona («Daloil al-xayrot») quyi diniy xizmatchilarni tayyorlagan. Maktabni tamomlagan o'quvchilar ta'limni davom ettirish uchun madrasalarga kirganlar.

“Usuli jadid” maktablarida milliy ma'naviyati yuksak, millat, Vatan istiqboli uchun jon kuydiruvchi yoshlarni tarbiyalab yetishtirish birinchi o'rinda turgan. Jadid pedagoglarining buyuk xizmatlari shundaki, ular maktablarda ona tilida ta'lim-tarbiya berishga, milliy adabiyot, musulmon dini va ma'haviyati asoslarini durust o'qitishga hal qiluvchi masala sifatida qaradilar. Chunki ular millatning o'zligini saqlovchi asosiy vosita ona tili va milliy adabiyot deb bildilar [4]. Jadidlar yurt istiqloli va taraqqiyotini zamonaviy mutaxasislarsiz tasavvur qila olmadilar. Shu munosabat bilan jadidlar

asosiy e'tiborni mahalliy xalq bolalaridan kuchli kadrlar tayyorlashga kirishdilar. Ular bu vazifani amalaga oshirish uchun maktab-maorif tizimini takomillashtirish kerak ekanligini anglab, shu maqsad yo'lida yangi usul maktablarini yaratishni jiddiy masala sifatid qaradilar. Yangi usul maktablarining boshqa maktablaridan farqi va yutuqlari shundaki, bu maktablarda sinf dars tizimiga o'tib, ko'rgazmali materiallardan foydalanish ancha samarali usul ekanligi isbotlandi. Toza va yirug' sunfxonalar, partalarda o'tirib dasrlarni o'zlashtirish, har bir dars soatida tanaffus joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Jadid maktablari ortib borgan sari ularning dars berish tizimi takomillashib boraveradi. O'rta Osiyo jadidchilik harakatining yoyilishida Mahmudxo'ja Behbudiyning o'rni beqiyosdir. Aynan Behbudiya maktabida har o'quv yilining oxirlarida imtihonlar o'tkazilgan. Imtihonlarga, albatta, ota-onalar va boshqa mehmonlar ham taklif qilinardi. Bu birinchidan: «usuli jadid maktablarini ko'proq targ'ib qilish va uning o'qish tartiblarini ko'rsatish bo'lsa; ikkinchidan maktabni hayotiyroq qilish, ya'ni bola va maktab birligini amalga oshirish va natijani aniqlash ham edi. Sakkiz sinf, ya'ni birinch bosqichni tugatgan shogird arab tili, fors-tojik tili, rus tili va turk tilida bemalol o'z fikrini bildirib yoza olardi. Bu bosqichdan o'tgan o'quvchi bemalol boshqarma ishlarda yoki maktabda o'qituvchilik faoliyatini yurita olardi. Har yilgi imtihonlarga barcha joydagи vakillarga xat yuborilib taklif etilardi. Mana shunday og'ir sharoitda o'zbek jadid pedagoglari ona tili hamda milliy adabiyotni o'qitishga, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishni millatning hayot yoki mamot masalasi sifatida qarab, ona tili va adabiyot o'qitishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqdilar. Bunday masalalar ularning darsliklarida o'z ifodasini topdi. Milliylik va milliyat masalasi Behbudi, Munavvarqori, Avloniy, Fitrat kabi mutafakkirlar faoliyatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Jumladan Mahmudxo'ja Behbudi jadid maktablarini rivojlantirish maqsadida ko'plab harakatlar qildi. Ta'lim sifatini ko'tarish maqsadida ko'plab darsliklar chop etdi. O'zining publisistik maqolalari orqali xalqga murojaat etib, farzandlarini bilim olishlikka imkoniyat yaratishni taklif qildi. Ba'zan qattiq tanqidlar bilan jamiyatning illathlariga, bilimsizlikka barham berish vaqtini yetganligini bong urib, millat ravnaqi uchun o'z jonini fido qildi. Bugun mustaqil O'zbekiston Behbudi yoki ta'lim-tarbiya yo'lida zahmat chekim o'zini qurban qilgan jadid bobolarimizni unutgani yo'q. Aksincha ularning hayot yo'llari o'rganilib, nomlari qaytadan barhayot bo'lmoqda. Biz pedagoglar ajdodlarimizdan o'rnak olib, ularga loyiq avlod sifatida Vatanimizning ravnaqi, xalqimizning farovonligi uchun dunyo yoshlariga raqobat qila oladigan kadrlar bo'lishimiz, qolaversa yosh avlodning ta'lim-tarbiya berishda bor iste'dodimizni qo'llashimiz har birimizning vazifamiz hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qosimov B. Mahmudjo‘ja Behbudiy (Tanlangan asarlar). – Toshkent: Ma’naviyat, 2009.
2. Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" www.ziyonet.com [1-bet]
3. Turdiev Sh. Ular Germaniyada o'qigan edilar. T.: 2006, [225-bet].
4. Dolimov. Ulug'bek Jadidchilikning tamal toshi" "Jahon adabiyoti", 2010 yil, 1-son.
5. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi O‘zbekistonning yangi tarixi Markazi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti, 1999.
6. Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. - Toshkent: O‘qituvchi, 2002.